

QUDRATOVA Laziza

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat
turizmi kafedrası magistranti
lazizakudratova@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: PhD, dotsent
BATIROVA Nilufar*

ISLOM MOLIYA MUASSASALARIDA MOLIYA HISOBINI YURITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI

ХАРАКТЕРИСТИКИ И ПРИНЦИПЫ ФИНАНСОВОГО УЧЕТА В ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

CHARACTERISTICS AND PRINCIPLES OF FINANCIAL ACCOUNTING IN ISLAMIC FINANCIAL INSTITUTIONS

Annotatsiya. *Islom moliyasi kundan kunga rivojlanib borayotgan ekan, uning o'ziga xos jihatlari ham jamiyatning e'tiborini tortib bormoqda. Islom moliyasi bo'yicha moliya hisobini yuritish masalasi ham kerakli mavzulardan biriga aylanmoqda, shu sababdan ushbu maqolada islom moliya muassasalarida buxgalteriya hisobini yuritishning tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari va islom moliya muassasalar tayyorlaydigan hisobot turlari ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *islom moliyasi, islom banklari, buxgalteriya, moliyaviy hisob, hisob siyosati, islom moliya muassasalari, pulning vaqt qiymati, AAOIFI tashkiloti, buxgalteriya hisobini yuritishning xalqaro standartlari.*

Аннотация. *Поскольку исламские финансы развиваются день ото дня, их уникальные аспекты привлекают внимание общества. Тема финансового учета в исламских финансах также становится одной из необходимых тем, по этой причине в данной статье показаны принципы, особенности бухгалтерского учета в исламских*

финансовых институтах, а также виды отчетов,готавливаемых исламскими финансовыми институтами.

Ключевые слова: *исламские финансы, исламские банки, бухгалтерский учет, финансовый учет, учетная политика, исламские финансовые институты, временная стоимость денег, организация AAOIFI, международные стандарты бухгалтерского учета.*

Annotation. *As Islamic finance is developing day by day, its unique aspects are attracting the attention of the society. The theme of financial accounting in Islamic finance is also becoming one of the necessary topics, for this reason, this article shows the principles, characteristics of accounting in Islamic financial institutions, and the types of reports prepared by Islamic financial institutions.*

Key words: *Islamic finance, Islamic banks, accounting, financial accounting, accounting policy, Islamic financial institutions, time value of money, AAOIFI organization, international accounting standards.*

KIRISH

Hozirgi kunda yurtimizda islom moliya instrumentlarini joriy qilish, islom banklarini ochish bo'yicha sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Islom banklari faoliyatini tashkil qilish uchun qonunchilik yaratish ustida ishlanmoqda [15]. Qonunchilikdan tashqari ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, islom moliya muassasalari uchun yuritiladigan moliya hisobining o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari va qonun-qoidalarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

An'anaviy buxgalteriya hisobi o'z mohiyatiga ko'ra islom qoidalariga mos keluvchi buxgalteriya hisobidan farq qilishi mumkin, chunki an'anaviy buxgalteriya qoidalari zamonaviy tijoriy qonun va qoidalarga, islom moliya instrumentlarini hisobga olishda esa islom dinining axloqiy qoidalariga asoslaniladi.

ASOSIY QISM

“Islom iqtisodiyoti tamoyillariga putur yetkazmagan holda islomiy moliya bo'yicha

buxgalteriya hisobini an'anaviy biznes bilan uyg'unlashtirish turli xalqaro manfaatdor tomonlarga va keng moliyaviy hisobotlarga ega bo'lgan global guruhlar uchun qiyinchilik tug'diradi" [14:40], chunki islom moliya muassasalarida hisob-kitob qilish ham axloqiy normalarga asoslanadi, ya'ni ular amal qilishi mumkin bo'lgan alohida normalar mavjud. Islom banklari tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda qabul qilingan hisob siyosati markazlashgan holda tartibga solinmaydi [1:240]. Shuning uchun deyarli har bir islom moliya instituti o'z ishini boshqaradigan turli aloqalar uchun o'z hisob siyosatini ishlab chiqqan bo'lib, bu sezilarli farqlarga olib keldi. Ushbu farqlar, islom moliya institutlarining moliyaviy hisobotlarini solishtirishni qiyinlashtiradi, shuningdek, ularni xalqaro bozor ishtirokchilari nazarida ishonchsiz ko'rinishga olib keladi [1:241]. Shunday bo'lsada, islom moliya muassasalari faoliyatini tashkil qilish, yuritish va islom qoidalariga muvofiqligini ta'minlash AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) tashkilotining standartlariga asoslanadi.

Xalqaro maydonda AAOIFI (Islom moliya institutlari uchun Buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti) tashkiloti islom moliya muassasalari uchun shar'iy, buxgalteriya va audit standartlarini ishlab chiqaruvchi tashkilot hisoblanadi. Bu tashkilot 1991-yilda Bahraynda ro'yxatdan o'tgan bo'lib, birinchi navbatda global islom moliya sanoati uchun standartlarni ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan yetakchi xalqaro notijorat tashkilotdir. U xalqaro islomiy moliya uchun islom iqtisodiyoti, buxgalteriya hisobi, audit, axloq va boshqaruv sohalarida jami 100 ta standart chiqargan [9]. Uni 45 dan ortiq mamlakatlarda bir qator institutsional a'zolar, jumladan, markaziy banklar va nazorat organlari, moliya institutlari, buxgalteriya va auditorlik firmalari va yuridik firmalar qo'llab-quvvatlaydi. Hozirda uning standartlaridan dunyoning barcha yetakchi islom moliya institutlarida asosiy manba sifatida foydalanib kelinmoqda. Bu tashkilotning bosh maqsadi xalqaro islom moliya amaliyoti va moliyaviy hisob amaliyotini islom iqtisodiyotiga

muvofiq standartlashtirish va uyg'unlashtirish hisoblanadi [9].

Umuman olganda, turli manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobi tamoyillari islom iqtisodiyotiga zid emas. Shu sababdan xalqaro bozorda Buxgalteriya hisobini yuritishning xalqaro standartlari (IFRS)ning to'rtta tamoyili buxgalterlar tomonidan Islom moliya operatsiyalarini aks ettirishda asos sifatida foydalaniladi; bular 1) mohiyat shakldan ustun; 2) pulning vaqtdagi qiymati; 3) adolatli qiymatni o'lchash; va 4) ehtimollik asosida tan olish tamoyillaridir [17:13]. Shu sababdan, Xalqaro Shariat Tadqiqot Akademiyasi (ISRA) tomonidan o'tkazilgan yirik tadqiqotda ushbu 4 tamoyilni islom moliyasida qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari o'rganib chiqilgan va bu tadqiqot hisob-kitoblarni tayyorlovchilar uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiluvchi va islomiy moliyaviy operatsiyalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ish sifatida islom moliya institutlari tomonidan tan olingan [17:13].

Mohiyat shakldan ustun tamoyiliga ko'ra Buxgalteriya hisobini yuritishning xalqaro standartlari (IFRS) bo'yicha ma'lumotni to'g'ri taqdim etilishi uchun faqat qat'iy huquqiy shaklni emas, balki iqtisodiy haqiqatni hisobga olish kerak. Islom moliyasida ham mohiyat va shakl o'rtasida nomuvofiqlik bo'lsa, mohiyatga katta ahamiyat beradi [16:44]. Malaysia Negara Banki (BNM) Shariat Maslahat Kengashi (SAC) ham shakldan ko'ra mazmunni tan olish haqidagi ko'pchilik nuqtai nazarni qabul qilgan [16:45]. Masalan, lizingga (Al-Ijarah) olingan aktivlar moliyaviy muassasa aktivlari sifatida tan olinmaydi, aksincha, ular Al-Ijara shartnomasi bo'yicha moliyaviy aktivlar sifatida aks ettiriladi. Bunda aktivga amortizatsiya va qadrsizlanish hisoblanmaydi, agar ijara muddati yakunida mulkka o'tkazish kelishilgan bo'lsa, ijara to'lovlari to'liq to'lanib bo'lgungacha u faqatgina moliyaviy aktiv sifatida qoladi. Bu shuni ko'rsatadiki, lizing bitimining iqtisodiy mazmuni huquqiy shakldan muhimroqdir.

Agar shakl mohiyatdan ustun bo'lganda edi, lizingga olingan aktivlarni bank aktivlari sifatida tan olardi va amortizatsiya va aktivlarning qadrsizlanishi uchun normal zaxira shakllantirardi.

Bu bankning ijaraga olingan aktivlarga egalik huquqini talab qilishini ko'rsatadi, bu esa bitimning iqtisodiy mazmunidan yuridik shaklning ustunligini tushuntiradi [2:120].

Pulning vaqtdagi qiymati tushunchasiga kelsak, agar operatsiya kechiktirilgan to'lovni nazarda tutsa, aktiv (majburiyat) ushbu operatsiya bo'yicha normal jarayon davomida hosil bo'lishi kutilayotgan kelajakdagi sof pul oqimi kirimi (chiqishi)ning joriy diskontlangan qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Pulning vaqt qiymatini qo'llash faqat to'lovni kechiktirishni nazarda tutuvchi ayirboshlash shartnomalari uchun joizdir va kredit-qarz operatsiyalarida (Qard) qat'iy man etiladi [16:44]. Ya'ni tovar va xizmatlar savdosidagi to'lov kechiktirilgan yoki bo'lib-bo'lib to'lash orqali bo'lsa, unda narx kutilayotgan pul oqimini hozirgi kundagi qiymatida bo'lishi, ya'ni spot narxdan qimmatroq bo'lishi mumkin, ammo qarz muomalasida nasiya evaziga to'lov miqdorini ko'tarish mumkin emas. Bunga naqd to'lov bilan sotish va Murobaha kabi kechiktirilgan to'lovni o'rtasidagi sotish bahosidagi farqlarni misol keltirish mumkin [11:321].

Adolatli qiymat tamoyili. Buxgalteriyada aktivning bahosini o'lchashda ikki xil usul ishlatiladi, bular adolatli qiymat va tarixiy xarajat usullaridir. Buxgalteriya hisobida aktivning adolatli qiymatini o'lchashda aktivlarning bozor qiymati yoki aktivdan kutilayotgan kelajakdagi pul oqimlarining diskontlangan qiymati topiladi va taqqoslanadi, qaysi biri kichik bo'lsa o'sha olinadi. Tarixiy xarajat usuli nisbatan arzonroq va soddaroq hisoblanib, aktiv sotib olingandagi qiymati qoldiriladi, har yili qayta baholanmaydi. Ba'zi olimlar tarixiy xarajat usulini islomiy boshqaruv tushunchasiga juda mos keladi deb hisoblashadi [13:43]. Shunday bo'lsada bu usuldan ko'ra adolatli qiymat usuli ko'proq ishlatiladi va islom tamoyillariga to'g'ri keladi [16:45].

Adolatli qiymat tamoyili bo'yicha buxgalteriya operatsiyalarida aktivlar joriy bozorda sotib olish yoki sotish mumkin bo'lgan narxlarida aks ettiriladi. Ya'ni aktivning hozirgi kundagi bozordagi real bahosi moliya hisobida aks etadi [17:15].

Malayziya Berhad Islom Banki ham aktivning adolatli qiymatini faol bozorda kotirovka qilingan narxdan foydalangan holda o'lchaydi, agar aktiv yoki majburiyat bo'yicha operatsiyalar doimiy ravishda narx ma'lumotlarini taqdim etish uchun yetarli chastota va hajmda amalga oshirilsa, bozor faol hisoblanadi.

Bahrain Islom Banki qoidalariga ko'ra, bozor bahosi bo'lmagan investitsiyalar uchun adolatli qiymatning oqilona bahosi boshqa deyarli bir xil vositaning joriy bozor qiymatiga asoslanib aniqlanadi.

Islom adolatli muomala va adolatli tijorat bitimlariga urg'u beradi, shu sababdan bozor narxiga ta'sir ko'rsatuvchi ikkita manipulyatsiya usuli islomda ta'qiqlanadi. Bular "Talaqqi ar-rukbon" (karvonlarni bozorga yetmasdan oldin kutib olish) va najsh (yolg'on savdo). Qadimda savdogarlar karvonlardagi mollarni shaharga kirishidan oldin sotib olishga harakat qilishgan, chunki karvondagi kishilar bu bozorlardagi narxlarni bilmay, arzonga sotib qo'yishgan, savdogarlar esa ularni keyin o'zlari xohlagan narxga sotishgan, bu bozor narxiga ta'sir ko'rsatgan. Najsh savdoda ikki kishi kim oshdi savdosida sotib olishni niyat qilmasdan, shunchaki narxni oshirish uchun qatnashishadi va sotib olmasdan chiqib ketishadi, bu ham islomda ta'qiqlangan savdo turi hisoblanadi [8:23].

Ehtimollikka asoslangan tan olish tamoyiliga ko'ra iqtisodiy resurslarning kirib kelishi ehtimoli katta bo'lsa va ularni asosli o'lchash imkoniyati mavjud bo'lsa, shartli ehtimoliy aktivlar hisobga kiritiladi, joriy majburiyatlar tufayli iqtisodiy resurslarning chiqib ketish ehtimoli katta bo'lsa, shartli ehtimoliy majburiyat hisobga kiritiladi. Malaysia Negara Banki (BNM)ning Shariat Maslahat Kengashi (SAC) islom moliyaviy hisobotida ehtimollik tamoyilini qo'llash joiz, chunki u umumiy fiqh tamoyillariga zid emas, deb ta'kidlagan. Boshqa fatvo chiqaruvchi organlar esa hozircha bu tamoyil bo'yicha aniq fatvo chiqarmagan.

Islom moliya muassasalarida ehtimollikka asoslangan tan olish masalasiga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

– mudoraba hisobvarag'i egalariga kutilayotgan to'lovlar bo'yicha majburiyatni tan olish;

– moliyaviy aktivlarning qadrsizlanish modeliga asoslangan holda qadrsizlanishini tan olish;

– kutilayotgan foyda stavkasidan foydalangan holda mudoraba debitorlik qarzlari (kirimlar)ni tan olish;

– kutilayotgan kelajakdagi pul oqimlari asosida daromad va xarajatlarni tan olish.

Malayziya Berhad Islom Banki qoidalariga ko'ra, moliyaviy hisobotni tayyorlashda rahbariyatdan aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarning hisobot summalariga ta'sir ko'rsatadigan o'zgarishlar haqida mulohaza, baholash va taxmin ishlab chiqish talab qilinadi. Haqiqiy natijalar bu taxminlardan farq qilishi mumkin. Hisob-kitoblar va asosiy taxminlar doimiy ravishda ko'rib chiqiladi. Buxgalteriya hisobiga kiritilgan o'zgartirishlar moliyaviy hisobotda hisob-kitoblar qayta ko'rib chiqilgan davrda va ta'sir ko'rsatadigan har qanday kelgusi davrlarda tan olinadi [14:8]. Bahrain Islom Banki qoidariga ko'ra, daromad, tegishli foydani kechiktirilgan davrga mutanosib ravishda taqsimlash yo'li bilan tan olinadi, bunda har bir moliyaviy davr naqd pul olinganidan qat'iy nazar, foydaning o'z qismini oladi. Muddati 90 kundan o'tgan hisobvaraqlar bilan bog'liq daromadlar konsolidatsiyalangan daromadlar to'g'risidagi hisobotdan chiqarib tashlanadi [14:8].

XULOSA

Islom moliya muassasalarida hisobotlar tayyorlash jarayoni an'anaviy moliya tashkilotlaridan biroz farq qiladi. Islom moliya muassasalari moliya hisob siyosatini an'anaviy moliyaviy hisobotlar bilan solishtirganda quyidagi farqlar ko'rinadi:

– balansning ayrim moddolari batafsil ko'rib chiqiladi;

– cheklanmagan mudaraba va boshqa investitsiyalar aktivlar va fond hisoblarining alohida identifikatsiya qilinadigan toifasi sifatida ko'rib chiqiladi;

– zakot va qarz mablag'larining manbalari va ishlatilishini batafsil bayon qiluvchi maxsus bayonotlar tuziladi [13:42].

Islom moliya muassalari an'anaviy moliya tashkilotlari topshiradigan hisobotlardan tashqari boshqa qo'shimcha hisobotlar ham tayyorlashadi. Islom moliya institutining moliyaviy hisobotlari to'plamini quyidagi tarzda guruhlash mumkin [18:38]:

- islom bankining an'anaviy banklar kabi tayyorlaydigan moliyaviy hisobotlari:

- moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;

- daromad to'g'risidagi hisobot;

- pul oqimi to'g'risidagi hisobot;

- xususiy kapital to'g'risidagi hisobot;

- islom banki tomonidan boshqariladigan taqiqlangan investitsiyalardagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi moliyaviy hisobotlar;

- islom bankining ijtimoiy maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'larning ishonchli vakili sifatidagi rolini aks ettiruvchi moliyaviy hisobotlar:

- zakot va xayriya jamg'armasining manbalari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bayonot;

- qarz fondidagi mablag'larning manbalari va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobot.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, islom moliya muassasalarida ham buxgalteriyaning xalqaro standartlariga asoslaniladi, ba'zi jihatlariga ko'ra undan farq qiladi. Buxgalteriya hisobini yuritishning xalqaro standartlari (IFRS)ning mohiyat shakldan ustun, pulning vaqtdagi qiymati, adolatli qiymatni o'lchash va ehtimollik asosida tan olish tamoyillari islom qoidalariga to'g'ri keladi va amaliyotda qo'llaniladi. Islom moliya muassasalarida moliyaviy hisob yuritishda asosan AAOIFI standartlariga tayaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdel-Karim R. Accounting and Auditing Standards for Islamic Financial Institutions. In Proceedings of the Second Harvard University Forum on Islamic Finance: Islamic Finance into the 21st Century, Cambridge, Massachusetts: Center for Middle Eastern Studies, Harvard University, pp. 239-241, 1999.
2. Accounting and auditing standards for Islamic financial institutions. AAOIFI. Manama, Bahrain. 1996.

3. Абдуллаев Р.В., Дусанов С.М. Ислом иқтисодиётида молиявий муносабатлар. Т.: “Тошкент ислом университети”, 2007. -36 б.
4. Абдуллаев Р.В. Ислом иқтисодиётида савдо ва тадбиркорлик. Тошкент, “EFFECT-D”, 2022. -232 б.
5. Ahmadjonov O., Sobirov S., Olimjonov D., Alijonov M. Islom bankining boshqaruvi, aktivlari va passivlari. Scientific progress. Volume 2 | ISSUE 6 | 2021. P. 1538-1545.
6. Begbutayev G.A. Islom banklarini aktiv operatsiyalari. Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqotlar jurnali April 2023, 2(4).
7. Беккин Р.И. Ислом иқтисодий модели ва замон. Тошкент, “Ўзбекистон” 2019.
8. Compendium for Islamic financial terms. ISRA. International Shari’ah Research Academy of Islamic Finance. Kuala Lumpur, 2010.
9. <https://aaoifi.com/about-aaoifi/?lang=en>
10. Isayev O.B. O‘zbekistonda Islomiy Moliyalashtirishni Joriy Qilishda Buxgalteriya Hisobi Va Auditi Masalalari. «Yangi O‘zbekiston: Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlarini Joriy Etishda Muvaffaqiyatli Xalqaro Tajriba» 16 Dekabr, 2022 Yil. 25-29-b.
11. Islamic Financial System: Principles and Operations. ISRA. International Shari’ah Research academy of Islamic Finance. Kuala Lumpur, 2011.
12. Ismanov I.N. Buxgalteriya hisobining xalqaro modellari, islom modeli hamda klassik modellar o‘rtasidagi farqlar. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies. Volume 2 | Issue 4 | April, 2022. Pp. 510-515.
13. Mirza M, Baydoun N., Do Islamic Societies Need Their Own Accounting and Reporting Standards?. Journal of the Academy of Business Administration. 4(2), 1999. pp. 39-45.
14. Nurazleena I., Zulkarnain M.S. A closer look at accounting for Islamic financial institutions. SHS Web of Conferences 34, FourA, 2017.
15. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son
16. Shafii, Z., Zakaria, N. Adoption of international financial reporting standards and international accounting standards in Islamic financial institutions from practitioners’ viewpoint. Middle-East Journal of Scientific Research, 2013. P. 42-49.
17. Shafii, Z., Zakaria, N., Shaharuddin, A., Sairally, B.S., Khir, M.F., Hussain, L., et al. An appraisals of the principles underlying international financial reporting standards: A Shar’ah Perspective. ISRA Research Paper 54, 2013, 1-36.
18. Shanmugam B., Perumal V., Ridzwa A. Issues in Islamic Accounting. Serdang: Universiti Putra Malaysia Press, 2005.